1-rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tumanda 2010 yilda 26985 tonna paxta xom-ashyosi ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2011 yilda mahsulot ishlab chiqarish hajmi keskin oshib – 29753 tonnani tashkil etgan, ammo keying yillarda ishlab chiqarish hajmida pasayish kuzatilib, 2012 yilda – 27277 tonna, 2013 yilda – 27263 tonna paxta xom ashyosi ishlab chiqarilgan.

Mahsulot ishlab chiqarishdagi o'zgarishlar paxtachilikdan olingan foydaga o'z ta'sirini turli darajada ko'rsatgan (2-rasm).



2-rasm. Ishtixon tumanida paxta xom-ashyosi ishlab chiqarishdan foydaning o'zgarishi

Manba: Ishtixon tumani qishloq va suv xo'jaligi bo'limi ma'lumotlari

2-rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tumanda paxta xom-ashyosidan olingan daromad 2010 yilda – 3102 mln so'm bo'lgan bo'lsa, 2011 yilda – 4716 mln so'mni, 2012 yilda 2914 mln so'mni va 2013 yilda 3850 mln so'mni tashkil etgan.

Tuman paxtachiligi iqtisodiy ko'rsatkichlarining 2010-2013 yillar davomida o'zgarishini o'rganish asosida rentatabellik darajasining kamayganligi aniqlandi (3.2.2-jadval).

3.2.2-jadval

**Ishtixon tumani fermer xo'jaliklarida paxtachilikning asosiy iqtisodiy
ko'rsatkichlari tahlili**

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Yillar				2013 yilda 2010 yilga nisbatan o'zgarish	
			2010	2011	2012	2013	+/-	%
1.	Yer maydoni	ga	10240	10240	9490	9730	-510	95
2.	Hosildorlik	s/ga	26,4	29,1	28,7	28	1,6	106,3
3.	Yalpi hosil	tonna	26985	29753	27277	27263	278	101
4.	Jami daromad	mln so'm	17059	21979,2	23549,2	27159,4	10100,4	159,2
5.	Jami xarajatlar	mln so'm	13957	17263,6	20635,4	23309,6	9352,6	167
6.	Yalpi foyda	mln so'm	3102	4715,6	2913,7	3849,8	747,8	124,1
7.	1 birlik mahsulot:							
-	Sotish bahosi	so'm/s	63216,6	73872,2	86333,4	99620	36403,4	157,6
-	Tannarxi	so'm/s	51721,3	58023,2	75651,4	85498,9	33777,6	165,3
-	Foyda	so'm/s	11495,3	15849	10682	14121,1	2625,8	122,8
8.	1 ga yer hisobiga:							
-	Daromad	ming so'm	1665,9	2146,4	2481,5	2791,3	1125,4	167,6
-	Xarajat	ming so'm	1363	1685,9	2174,4	2395,6	1032,6	175,8
-	Foyda	ming so'm	302,9	460,5	307	395,7	92,8	130,6
9.	Rentabellik darajasi	%	22,2	27,3	14,1	16,5	5,7 punkt kamaygan	

Manba: Ishtixon tumani qishloqvasuv xo'jaligibo'limima'lumotlari

3.2.2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Ishtixon tuman fermer xo'jaliklarida yiliga kam 10 ming yer maydonida paxta xom-ashyosi yetishtiriladi. 2010-2013 yillari tahliliga ko'ra yer maydonlari 9490-10240 ga o'ralganligi natijada 510 gektarga yoki 5% ga qisqarganlik ko'rsatdi. Shunday bo'lsa-da, tumanda hosildorlikning 1,6 s/ga oshishi umumiy mahsulot miqdorining 278 tonna yoki 1% ga oshganligini ko'rsatdi. Bu hosildorlikni kelgusida yanada oshirish orqali, paxta ekin maydonlarini oshirmasdan yalpi hosilni yanada ko'paytirish imkonini berishi mumkinligining yana bir dalilidir.

Tuman fermer xo'jaliklarida 2010-2013 yillar davomida iqtisodiy ko'rsatkichlarda ham o'sish kuzatilgan. Jumladan: daromad – 59,2%ga, jami sarflar – 67%ga, yalpi foyda 24,1%ga oshgan. Foydaning nisbatan kam o'sishiga 1 birlik paxta sotish bahosining tannarga nisbatan kamroq o'sganligini sabab qilib ko'rsatish mumkin. 2010-2013 yillarda 1 birlik paxta xom-ashyosi 57,6%ga

o'shgan bo'lsa, tannarx nisbatan ko'proq 65,3%ga oshgan, natijada foyda ham kamroq 22,8%ga o'sganligi kuzatildi. Bu rentabellikka o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmagan. 2010 yilda rentabellik darajasi 22,2% bo'lgan bo'lsa, 2013 yilda 16,5%ni tashkil etib, tahlil qilingan davrda 5,7 punktga kamaygan.

3.3. Paxtachilikda rentabellikning omilli tahlili

Rentabellikka ta'sir etuvchi muhim omillardan biri bu foyda hisoblanadi. Aynan shu bois, xo'jalik paxtachiligida foydaning shakllanishini ko'rib chiqamiz.

Foyda ishlab chiqarish jarayenida tashkil topadi, ammo u tovarlar sotilgandan keyin aniq namoyon bo'ladi, yuzaga keladi.

Sotilgan mahsulotlarning xar bir turi buyicha yalpi foydani aniqlash uchun yuqorida kayd qilinganimizdek sotishdan olingan sof tushumdan sotilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxini chegirib tashlash kerak, ya'ni yalpi foydani quyidagi formuladan foydalanib, aniqlash mumkin:

$$\text{Foyda} = qp - qz$$

Bunda, q- sotilgan mahsulotning miqdori, s hisobida;

r- 1 s mahsulotning o'rtacha sotish bahosi, sum hisobida

z – 1 s mahsulotning o'rtacha tannarxi, sum hisobida

qp – mahsulot sotishdan olingan sof pul tushumi, ming sum hisobida

qz – sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi, ming sum hisobida.

Hisobot yilida mahsulot sotishdan olingan foydaning bazis yiliga nisbatan o'zgarishini (ko'payishini yeki kamayishini) quyidagi formuladan foydalanib aniqlash mumkin:

$$(q_1 p_1 - q_1 z_1) - (q_0 p_0 - q_0 z_0) = \pm \Delta q p z$$

Ushbu keltirilgan formuladan ko'rinib turibdiki, mahsulotni sotishdan olingan yalpi foydaning o'zgarishi bevosita quyidagi uch omil ta'siri ostida yuzaga keladi:

1. Sotilgan mahsulot miqdorining o'zgarishi (q)

2.1 s mahsulotning o'rtacha sotish bahosining o'zgarishi (r)

3 1 s mahsulotning o'rtacha ishlab chiqarish tannarxining o'zgarishi (z)

Yalpi foydaning o'zgarishiga omillarning ta'sirini «Ko'rsatkichlar farki» va «Zanjirli almashtirish» usullari yordamida aniqlanadi. Buning uchun zaruriy ma'lumotlarni jamlab olamiz.

3.3.1-jadval

Ishtixon tumani fermer xo'jaliklarida paxtachilikda foydaning omilli tahlili

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Yillar		O'zgarishi, +/-
			2010	2013	
1.	Sotilganmahsulotmiqdori	tonna	26985	27263	278
2.	1 tonnamahsulotsotishbahosi	mingso'm	632,2	996,2	364
3.	1 tonnamahsulottannarxi	mingso'm	517,2	855	337,8
4.	1 tonnamahsulotdanolinganfoyda	mingso'm	115	141,2	26,2
5.	Foyda	mlnso'm	3102	3849,8	747,8
-	Mahsulotmiqdoriningo'zgarishihisobiga	mlnso'm	x	x	32
-	1 tonna mahsulot sotish bahosining o'zgarishi hisobiga	mlnso'm	x	x	9924,6
-	1 tonna mahsulot tannarxining o'zgarishi hisobiga	mlnso'm	x	x	9208,8

Manba: Ishtixon tumaniqishloqvasuvxo'jaligibo'limima'lumotlari

3.3.1-jadvalma'lumotlaridankorinibturibdiki, Ishtixon tumanifermerxo'jaliklarida o'rganilgan davrda yalpi foyda 747,8 mln so'mga oshgan bo'lib, buo'zgarishga 3 omilta'siretgan: mahsulotmiqdoriningoshishi – 32mlnso'moshishiga, paxtatannarxiningoshishi9208,8 mlnso'mkamayishiga, paxtasotishbahosiningoshishi9924,6 mlnso'mta'siro'tkazgan.

Paxtasotishrentabelligikoeffitsiyentinianiqlashuchunyuqoridaqaydqilinganidek, mahsulotlarnisotishdanolinganyalpifoydaqiymatinisotilganmahsulotlarningishlabchiqarish tannarxigabo'lishkerak:

$$YaF = \frac{Yalpi\ foyda}{TN} = \frac{\text{mahsulotlar tannarxi}}{\text{mahsulotlar tannarxi}}$$

Bu koeffitsiyent 1 so'mlik ishlab chiqarish tannarxi (xarajati) hisobiga mahsulotlarni sotishdan olingan foyda (zararni) ko'rsatadi. Ushbu koeffitsiyent kancha yuqori bo'lsa, foydalilik darajasi shuncha yuqori bo'ladi, agar kam bo'lsa foydalilik kamayib, samaradorlik pasayadi.

Ushbu koeffitsiyent buyicha moliyaviy natijaga baho berish uchun uni uzluksiz ravishda tahlil etib borish kerak.

Hisobot yilidagi rentabellik darajasini bazis yilidagi (yoki biznes-rejada kuzda tutilganiga) solishtirib, uning o'zgarishi (oshgan yoki kamayganligi) aniqlanadi:

$$\frac{YaF1}{TN1} - \frac{YaFo}{TNo} = +\Delta tn,yaf$$

Shundan so'ng o'zgarish sabablari aniqlanadi.

Ushbu rentabellik koeffitsiyentining o'zgarishiga yalpi foyda hajmining o'zgarishi bevosita, sotilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxi hajmining o'zgarishi bilvosita ta'sir qiladi. Yalpi foyda hajmining bazis yilidagi hajmiga nisbatan ko'payishi albatta rentabellik koeffitsiyentining oshishiga olib keladi, kamayishi aksincha, uning darajasini pasayishiga sababchi bo'ladi. Ishlab chiqarish tannarxi hajmining ko'payishi rentabellik koeffitsiyentini kamayishiga, uning hajmining kamayishi esa rentabellik darajasining oshishiga olib keladi.

Yuqorida keltirilgan mahsulotlar realizatsiyasi rentabelligini ifodalovchi formuladan ko'rinib turibdiki, uning o'zgarishi ikki omil hisobiga sodir bo'ladi:

- Sotilgan mahsulotlar ishlab chiqarish tannarxi qiymatining o'zgarishi hisobiga (TN)

- Sotilgan mahsulotlar buyicha olingan yalpi foyda qiymatining o'zgarishi hisobiga (YaF)

Ushbu omillarning rentabellik koeffitsiyentining o'zgarishiga ta'sirini "Zanjirli almashtirish" usulidan foydalanib, aniqlanadi. Ammo ularning ta'sirini aniqlaganga kadar "Shartli rentabellik koeffitsiyenti"ni aniqlab olish zarur.

Shartli rentabellik koeffitsiyentini aniqlash uchun bazis davridagi yalpi foyda qiymatini (YaFo) hisobot davridagi sotilgan mahsulotlar ishlab chiqarish tannarxiga (TN1) bo'lish kerak:

$$R_{msh} = \frac{YaFo}{TN1}$$

Shundan so'ng mahsulotlar realizatsiyasi rentabelli koeffitsiyentining o'zgarishiga omillarning ta'siri "Zanjirli almashtirish" usuli orkali aniqlanadi.

Ushbu rentabellik koeffitsiyentining o'zgarishiga "sotilgan mahsulotlar ishlab chiqarish tannarxi" o'zgarishini ta'sirini "Shartli rentabellik koeffitsiyenti"dan bazis davridagi "rentabellik koeffitsiyenti"ni chiqarib tashlash orkali aniqlanadi:

$$\frac{YaFo}{TN1} - \frac{YaFo}{TN0} = \pm \Delta tn$$

Agar ushbu koeffitsiyent bazis yiliga nisbatan oshsa, tannarx hajmining kamayishi tufayli yuzaga kelganligini bildiradi, agar u pasaysa - tannarx qiymatining oshishi hisobiga paydo bulganligini ko'rsatadi. Demak, tannarx hajmining o'zgarishi rentabellik koeffitsiyentining o'zgarishiga bilvosita ta'sir qiladi.

Rentabellik darajasining o'zgarishiga ikkinchi omilning ya'ni yalpi foyda hajmining o'zgarishini ta'siri aniqlash uchun hisobot davridagi rentabellik koeffitsiyentidan shartli rentabellik koeffitsiyentini chegirib tashlamoq kerak:

$$\frac{YaF1}{TN1} - \frac{YaFo}{TN1} = \pm \Delta yaf$$

Agar koeffitsiyent ushbu bazis yiliga nisbatan oshgan bo'lsa, bu yalpi foydaning oshganligi tufayli, kamaygan bo'lsa – yalpi foydaning kamayganligi natijasida yuzaga kelganligini ko'rsatadi. Demak, yalpi foydaning o'zgarishi rentabellik koeffitsiyentining o'zgarishiga bevosita ta'sir qiladi.

Ikkala omil ta'sirining yig'indisi mahsulotlar realizatsiyasi rentabelligi koeffitsiyentining umumiy o'zgarishiga teng kelishi shart.

3.3.2-jadval

Ishtixon tumani fermer xo'jaliklarida paxtachilikda rentabellikning omilli tahlili

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2010 yil	2013 yildagi mahsulot tannarxi va 2010 yildagi yalpi foyda bo'yicha	2013 yil	2013 yilning 2010 yildan farqi, +/-
1.	Sotilgan mahsulot ishlab chiqarish tannarxi	mln so'm	13957	23309,6	23309,6	9352,6
2.	Yalpi foyda	mln so'm	3102	3102	3849,8	747,8
3.	Rentabellik (+) darajasi	%	22,2	13,3	16,5	-5,7
	Omillar ta'siri hisobiga rentabellikning o'zgarishi:					
1.	Mahsulot ishlab chiqarish tannarxi		x	x	x	-8,9
2.	Yalpi foyda		x	x	x	3,2

Manba: Ishtixon tumani qishloqvasuxo'jaligibo'limima'lumotlari

3.3.2-jadvalma'lumotlaridankorinibturibdiki, tumanfermerxo'jaliklaripaxtarentabelligo'rganilgandavrda5,7punktgakamayganbo'lib, xarajatlarningoshishihisobiga – 8,9punktamayganvayalpifoydaningoshishihisobiga3,2punktgaoshgan.

4. PAXTACHILIKDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH IMKONIYATLARI.

4.1. Paxtachilikda mahsulot tannarxini pasaytirish imkoniyatlaridan foydalanish.

Paxta xom ash'yosi tannarxini pasaytirish muxim vazifa bo'lib, bu vazifani xal qilishda mavjud yer-suv, mehnat va moddiy resurslarni, ya'ni resurslar

saloxiyatini to'g'ri sarflash, ularni belgilangan me'yorlariga kat'iy rioya qilish, tejamkorlikni amalda keng qo'llash muximdir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jaliklar mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va mahsulot tannarxi kalkulyasiyasini to'g'ri tashkil qilishning ahamiyati xam juda kattadir.

Mahsulot tannarxi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi iqtisodiy samaradorligining muxim omili va ko'rsatkichi hisoblanadi. Xar qanday mahsulot birligining tannarxi ikki miqdor nisbatiga: ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot sifatiga bogliq bo'ladi. Tannarx quyidagi xollarda pasayishi mumkin:

1. Agar mahsulot o'zgarmagani xolda, xarajat miqdori kamaysa.
2. Agar yalpi mahsulot miqdori ko'payib, xarajatlar o'zgarmasa.
3. Agar yalpi mahsulotining o'sish sur'ati xarajatlar o'sish sur'atidan yuqori bo'lsa.

Ma'lumki, paxta xom-ashyosini ko'paytirish intesiv va ekstensiv yullardan foydalanish darajasiga bog'liq.

Paxta xom-ashyosi tannarxini moddiy-pul resurslaridan oqilona foydalanish hisobiga xam pasaytirish lozim. Shu maqsadda ularning tashkil topish xususiyatlarini tahlil qilamiz.

Mahsulot tannarxining tahlili bilan bir qatorda uning tarkibiy tuzilishini xam tahlil etish zarur, ya'ni tannarx tarkibidagi har bir modda buyicha o'zgarishini omilli tahlil qilish kerak, shunday qilinsa, tannarxni arzonlashtirish imkoniyatlarini ko'rsatish chora-tadbirlarini ishlab chiqish uchun sharoit yaratiladi.

4.1.1-jadval

Ishtixon tumani fermer xo'jaliklarida paxtachilikka sarflar tarkibi tahlili

T/r	Ko'rsatkichlar	Yillar				2013yilda	
		2010		2013		2010yilganisbatano'zgarishi, +/-	
		Qiymati, mlnso'm	Sal-mog'i, %	Qiymati, mlnso'm	Sal-mog'i, %	+, -	%
1.	Mehnathaqivaajratmalar	6155	44,1	10069,7	43,2	3914,7	-0,9

2.	Asosiy vositalarni saqlash	181,4	1,3	279,7	1,2	98,3	-0,1
3.	Urug'lik	669,9	4,8	1072,2	4,6	402,3	-0,2
4.	YoMM	2065,6	14,8	3426,5	14,7	1360,9	-0,1
5.	Ishvaxizmatlar	2400,6	17,2	4172,4	17,9	1771,8	0,7
6.	Mineral o'g'itlar	1242,2	8,9	2121,2	9,1	879	0,2
7.	Boshqaruv xarajatlari	321	2,3	606	2,6	285	0,3
8.	Sug'urtato'lovlari	167,5	1,2	373	1,6	205,5	0,4
9.	Boshqaxarajatlar	753,7	5,4	1188,8	5,1	435,1	-0,3
	Jami	13957	100	23309,6	100	9352,6	0

Manba: Ishtixon tuman iqtisodiyot va savdo boshqarmasi tomonidan olingan ma'lumotlar

4.1.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tuman fermer xo'jaliklarida 2013 yildagi paxtachilikka qilingan jam'iy xarajatlar 23309,6 mln so'mni tashkil etib, 2010 yilganisbatan 9352,6 mln so'mga oshgan.

Xarajatlarning tarkibida qiymat bo'yicha eng ko'p o'sish mehnat haq va ajratmalar xarajatlari idabo'lib, o'rganilgan davrda qiymati 3914,7 mln so'mga oshib, salmog'i 0,9 punktga kamaygan. Salmog'ijihatidan tahlil natijalaridan ko'rsatdiki, tuman fermer xo'jaliklarida: Ish va xizmatlar, mineral o'g'itlar, boshqaruv xarajatlari, sug'urta to'lovlari xarajat moddalarida o'sish kuzatilgan bo'lsa, Mehnat haqi va ajratmalar, Asosiy vositalarni saqlash, Urug'lik, YoMM xarajat moddalarida kamayish kuzatilgan.

Xarajat moddalarining tarkibida salmog'ijihatidan eng ko'p o'sish ish va xizmatlar moddasida kuzatildi: 0,7 punkt. Bundan paxtachilikdagi xo'jalik texnikalaridan emas, ko'proq ish va xizmatlardan foydalanib, tannarxning oshishiga olib kelayotganini ko'rish mumkin.

4.2. Paxtachilikda mahsulot miqdori va sifatini oshirish imkoniyatlari.

Paxtachilikni xalq xo'jaligidagi ahamiyati katta bo'lganligi uchun sohani rivojlantirishga e'tibor berilib, ekin maydonlarini kengaytirish, kanallar chiqarish,

suv omborlari qurish, o'g'it va boshqa ximiyaviy vositalar bilan ta'minlash, ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizasiyalash kabi tadbirlar jadal ravishda olib borildi.

Natijada paxtachilik sug'oriladigan maydon 70–75%i egallanib, paxtaning yalpi hosili 5,5–6 million tonnagacha yetkazildi, hosildorlik esa 26–30 sentnergacha ko'tarildi. Bu ishlab chiqarishga bir tomonlama yondashish oqibati bo'lib, respublika qishloq xo'jaligining boshqa tarmoqlarini rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatar edi.

O'zbekiston mustaqilligiga erishgach, yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etib, barcha sohalarni rivojlantirishni amalga oshirmoqda. Endilikda paxtachilik bilan bir qatorda g'allachilik, meva – sabzavotchilik, charvachilik kabi isohotlarni jadal rivojlanish imkoniyatlari yaratildi.

Ekin maydonlarining tizimida paxtaning salmog'i tuproq iqlim sharoitlariga qarab, 50–60 % dan oshmasligi, qolgan maydonlarga esa don, oziqabop yem-xashak ekinlarini joylashtirish lozim bo'ladi.

Paxtachilikni intensiv rivojlantirish, mamlakat bo'yicha hosildorlikni gektariga 30- 35 sentnerga, yalpi hosilni 4 – 4,5 million tonnaga ko'tarish sohaning barqarorligini ta'minlaydi.

G'o'za yuqori potensial imkoniyatlarga ega bo'lgan o'simlik bo'lib, uning hosildorligi ayrim xo'jaliklarda gektaridan 40 sentnerdan ham oshiqroq bo'lsa, ishlab chiqarish ilg'orlari 50 sentnerdan ham yuqori hosil olmoqdalar.

Mamlakatimizda paxta ishlab chiqarish hajmini oshirishning ekstensiv usulidan foydalanish chegaralangan, odatda tannarxni pasaytirish uchun kulay sharoit yarataolmaydi xam.

Paxta xosildorligini oshirish, binobarin, tola miqdorini ko'paytirish xam aloxida ahamiyatga egadir. Buning uchun esa paxta ishlab chiqaruvchilar moddiy manfaatdorligini pirovard natija bilan uzviy boglash mexanizmini to'g'ri yulga quyish takozo etiladi. Paxta ishlab chiqarish soxasida xo'jaliklarning moddiy-texnika vositalari bilan ta'minlanishini yaxshilash, yerlar unumdorligini oshirish, seleksiya ishlarini faollashtirish va boshka omillarga karatilgan chora tadbirlarni

amalga oshirish – paxta tannarxining pasayishi va oxir-okibatda paxta tolasi sotish samaradorligining yanada ko'payishiga olib keladi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi samaradorligini oshirishning xal qiluvchi sharti xar bir gektar yerdan va xar bir bosh moldan olinadigan mahsulotni ko'paytirish hisoblanadi. Intensivlashtirish jarayoni nafaqat bir gektar yerga yoki bir bosh molga qushimcha mablagning o'sishini bildirib qolmasdan, balki ulardan samarali foydalanishni xam bildiradi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini intensivlashtirishning iqtisodiy samaradorligi sarflangan xarajatlar hajmiga taqqoslaganda xar bir gektar yerdan arzon va yuqori sifatli mahsulotni yuqori sur'atda olishda ifodalanadi.

Qishloq xo'jaligini intensivlashtirishning iqtisodiy samaradorligini oshirish, yer, moddiy texnika va mehnat resurslaridan faol foydalanish, tabiiy va iqtisodiy sharoitlarni xar tomonlama hisobga olishni talab qiladi. Nazariy jixatdan xar qanday yer uchastkasiga, xar qanday hajmda, xar qanday kapitalni quyish mumkin, lekin bu uz-uzidan ma'lumki, agar shu mamlakatda shu paytda barcha sharoitlar, ya'ni iqtisodiy, texnikaviy, madaniy va boshqa sharoitlar mavjud bo'lishiga bogliq. Qishloq xo'jaligini rivojlantirishga sarflanadigan xarajatlar oqilona sarflanishi kerakki, bunda xo'jalik xar bir birlik xarajatga kuproq mahsulot va maqsimum foyda olishi kerak.

Tuproqni ishlashni yaxshilash, qushimcha organik va mineral ugitlar solish, meliorativ ishlarni utkazish, barcha kompleks agrotexnik tadbirlarni bajarish tuproqning iqtisodiy unumdorligini oshirishga, dexqonchilik va chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni ustirishga imkon beradi

Jahon bozori bilan bog'liq bo'lgan tarmoqlardan biri hisoblangan paxtachilikda ham jahon bozoridagi hozirgi holatni o'rganish va unga mos strategiya tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Jahon paxta bozorida taklifni asosiy qismini shakllantiruvchi mamlakatlarda mahsulot ishlab dinamikasini tahlil qilamiz.

4.2.1-jadval

Jahonda asosiy paxta tolasi ishlab chiqaruvchi mamlakatlarda ishlab chiqarish holati tahlili*

№	Mamlakat	Yillar						2012 yilda 2010 yilga nisbatan farq, +/-	
		2010		2011		2012		qiymati, mln AQSH dollar	miqdori, ming tonna
		qiymati, mln AQSH dollar	miqdori, ming tonna	qiymati, mln AQSH dollar	miqdori, ming tonna	qiymati, mln AQSH dollar	miqdori, ming tonna		
1.	Xitoy	8532,3	5970	9417	6589	9775,8	6840	1243,5	870
2.	Hindiston	8122,2	5683	8552,4	5984	7604,8	5321	-517,4	-362
3.	AQSh	5633,5	3941,7	3304,3	2312	5142,3	3598	-491,2	-343,7
4.	Pokiston	1623,7	1136,1	2391,5	1673,3	3165,7	2215	1542	1078,9
5.	Braziliya	1391,3	973,4	4877,2	3412,6	2341,2	1638,1	949,9	664,7
6.	O'zbekiston	1623,7	1136,1	1405,5	983,4	1503,5	1052	-120,2	-84,1
7.	Avstraliya	552,8	386,8	1205,6	843,6	1391,3	973,5	838,5	586,7
8.	Turkiya	1136,9	795,5	1364,3	954,6	1216,3	851	79,4	55,5
9.	Gretsiya	262,7	183,8	333,3	233,2	524,5	367	261,8	183,2
10.	Meksika	224,4	157	391,6	274	314,4	220	90	63
11.	Argentina	328,7	230	421,6	295	300,1	210	-28,6	-20
12.	Burkina Faso	271,5	190	214,4	150	294,4	206	22,9	16
13.	Turkmaniston	321,6	225	278,7	195	283	198	-38,6	-27
14.	Myanmar	190,1	133	255,5	178,8	190,8	133,5	0,7	0,5
15.	Qozog'iston	132,1	92,5	158,6	111	187,5	131,2	55,4	38,7

*Manba: <http://faostat.fao.org/> sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

4.2.1-jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, keyingi yillarda Xitoy, Hindiston, Pokiston va Braziliyada ishlab chiqarish darajasi ancha oshgan bo'lsa, boshqa mamlakatlarda ishlab chiqarish darajasi pasaygan. O'zbekiston ham 2012 yilda 2011 yilgi 5-o'rinni Braziliyaga bo'shatib bergan. Buning sababi O'zbekistonda 2010-yilda 1623,7 mln AQSh dollar qiymatdagi 1136,1 ming tonna paxta tolasi ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2011 yilda 1405,5 mln AQSh dollar qiymatdagi 983,4 ming tonna paxta tolasi ishlab chiqarilgan, 2012 yilda esa 1503,5 mln AQSh dollar qiymatdagi 1052 ming tonna paxta tolasi ishlab chiqarilgan. Natijada 2010-2012 yillar davomida O'zbekistonda paxta tolasi ishlab chiqarish qiymati 120,2 ming AQSh dollariga, miqdori esa 84,1 ming tonnage kamaygan. Keltirilgan 17 asosiy paxta tolasi ishlab chiqaruvchi davlatlarning 9 tasi Osiyo mamlakatlari, 2 tasi Shimoliy Amerika mamlakatlari, 2 tasi Janubiy Amerika mamlakatlari, 2 tasi Afrika mamlakatlari, 1 tasi Yevropa mamlakati hisoblanadi.

Bu raqamlar paxtachilik Osiyo qit'asida nisbatan ko'proq ishlab chiqarishga ega ekanligini ko'rsatadi. Dunyo mamlakatlari ichida o'rganilgan davrda paxta tolasi ishlab chiqarishning Xitoyda – 870 tonna yoki 1243,5 mln AQSh dollari, Pokistonda – 1078,9 ming tonna yoki 1542 mln AQSh dollari va Braziliyada – 664,7 ming tonna yoki 949,9 mln AQSh dollari miqdorida ishlab chiqarishning keskin oshgani kuzatildi.

4.3. Paxtachilikda mehnat unumdorligini oshirish

Mehnat unumdorligi darajasining oshib borishi yuqori samarali qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining zaruriy sharti hisoblanadi

Paxtachilikda mehnat unumdorligini oshirishning iqtisodiy mohiyati 1 s paxta xom ashyosini ishlab chiqarishga ketgan mehnatni kamaytirish yoki mehnat o'zgarmagani holda mahsulotni ko'paytirishdir. Hozirgi paytda paxtachilikda bevosita ishlarning 70-80 foizi qo'lda bajariladi va uning unumdorligiga salbiy ta'sir etadi. Qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligini o'stirishning xalq xo'jalik ahamiyati quyidagicha:

1.U dehqonchilik va chorvachilik yalpi mahsulotini ko'paytirishning yagona manbai hisoblanadi va aholini ilmiy asoslangan me'yorlar bo'yicha oziq-ovqatga bo'lgan talabini va sanoatning xom-ashyoga bo'lgan talabini to'laroq qondirishni ta'minlaydi;

2.Mehnat unumdorligining o'sishi mahsulot ishlab chiqarishga sarflanadigan jonli mehnat xarajatlarini qisqartiradi, ish vaqtini tejaydi. Mehnat unumdorligi qancha yuqori bo'lsa, mahsulot birligi olish uchun shuncha kam ish vaqti ketadi va qishloq xo'jaligida band bo'lgan xodimlar soni kamayadi. Bo'shagan ish kuchi boshqa sferalarga yo'naltiriladi;

3.Mehnat unumdorligining o'sishi ish kunini, ish haftasini, yildagi ish soatlari miqdorini qisqartirishga sharoit yaratadi va bo'sh vaqtni ko'paytiradi. Qishloq mehnatchilariga shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini aqliy va jismoniy rivojlantirish, ilmiy-texnikaviy va badiiy ijodiyot-qondirish uchun bo'sh vaqt vujudga keladi;

4.Mehnat unumdorligining o'sishi mahsulot birligi hisobiga mehnat haqi xarajatlarini kamaytiradi. Mehnat unumdorligining o'sish sur'ati mehnat haqining o'sish sur'atidan ilgarilab ketsa, mahsulot birligiga to'g'ri kelgan mehnat haqining absolyut miqdori va hissasi pasayadi;

5.Mehnat unumdorligining o'sishi moddiy resurslarda buyumlashgan mehnat xarajatlarini tejashga va foydalanish samaradorligini oshirishga imkon beradi;

6.Mehnat unumdorligining o'sishi, jonli va buyumlashgan mehnat xarajatlaridan samarali foydalanib, mehnat haqi xarajatlarini qisqartirib va bir butun ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirib, qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish xarajatlarining rentabellik darajasini oshirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi amaliyotida mehnat unumdorligini o'stirishning bir qancha variantlari bo'lishi mumkin.

1.Mahsulot ishlab chiqarishning o'sishi mehnat xarajatlarining o'sishidan oldinga ketadi;

2.Mahsulot ishlab chiqarish ko'payadi, mehnat xarajatlari o'zgarmasdan qoladi;

3.Mahsulot ishlab chiqarish ko'payadi, mehnat xarajatlari pasayadi;

4.Mahsulot ishlab chiqarish o'zgarmaydi, mehnat xarajatlari pasayadi;

5.Mahsulot ishlab chiqarish kamayadi, mehnat xarajatlari undan ham ko'proq kamayadi.

Mehnat unumdorligini oshirish uchun quyidagi omillardan oqilona foydalanish zarur:

1.Sermehnat jarayonlarni kompleks mexanizasiyalash;

2.Mashinalar tizimidan foydalanish;

3.Ishlab chiqarish texnologiyasini qisqa muddatlarda va sifatli o'tkazish;

4.Ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va yiriklashtirish;

5.Mehnat malakasini oshirish;

6.Mehnat tashkil etishda uning progressiv shakllaridan foydalanish;

7.Xodimlarning dam olish, maishiy va mehnat sharoitlarini yaxshilash;

8.Iqlim, tuproq unumdorligini yaxshilash va h.k.

5. QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQRISHIDA MEHNAT XAVFSIZLIGI

Mehnat muhofazasining asosiy vazifalaridan biri ishlovchilarning mehnat xavfsizligini ta'minlashdir. Zamonaviy agrosanoat ishlab chiqarishi muntazam yangi texnikalar, mikrobiologik va kimyoviy moddalar yetkazib berishni, chorva mollarini katta komplekslarga va mayda fermerlik xo'jaliklariga birlashtirishni, ish jarayonlarining yiriklashuvini, dehqonchilikdagi ishlarni bajarishni, ayrim mehnat turlarini hamda vostialarını o'zgartirib borishni o'z ichiga oladi.

Mehnat xavfsizligi – mehnat sharoitining shunday holatiki, unda ishlovchilarga xavfli va zararli ishlab chiqarish omillarining ta'siri istisno qilingan. Ishlab chiqarish sharoitida insonga jarohat yetkazilishi bu fizikaviy va kimyoviy xavfli ishlab chiqarish omillari borligini bildiradi.

Barcha mashina va mexanizmlarga xavfsizlik texnikasi va ishlab chiqarish sanitariyasi bo'yicha yagona talablar qo'yiladi. Ana shu talablarga muvofiq mashina va mexanizmlarni boshqarishning asosiy richaglari o'ng qo'l ostiga joylashgan bo'lishi, har qaysi mashinada tovush signali, orqani ko'rish oynasi, burilish va to'xtash signallari bo'lishi kerak.

Ish jarayonida mashina va mexanizmlardagi mahkamlangan joylar bo'shashadi, zazor (tirqish) lar kattalashadi, moy, suv yoki yonilg'i siza boshlaydi va hokazo. Shu boisdan pala-partish ko'rsatilgan texnik xizmat avariya va baxsiz hodisalarga sabab bo'lishi mumkin. Masalan, traktor yurish qismining mahkamlangan joylarini o'z vaqtida tekshirib va taranglab turilmasa, u ag'darilib ketishi mumkin. Agar mashina ishlayotgan vaqtda inson hayoti yoki salomatligiga xavf soladigan nuqson payqalsa, ishni darhol to'xtatish kerak. Har bir traktorchi, kombaynchi, haydovchi mashinani ishlatishdan oldin uning texnik holatini tekshirib ko'rishi kerak.

Mashinadagi har bir harakatlanuvchi detal xavflidir. aylanayotgan val, yulduzcha, tishli g'ildirak qo'lni, turmaklanmagan sochni yoki kiyimni ichkariga olib ketishi mumkin. Shu boisdan mashina va mexanizmlarning harakatlanuvchi qismlari qalpoq, g'ilof, kojux, to'siqlar bilan berkitiladi. Ammo harakatdagi barcha qismlarni ham himoya qurilmalari bilan berkitib bo'lmaydi. Shu sababdan xavfli zonada ham ishlashga to'g'ri keladi. Xavfli doira hamma mashina va

mexanizmlarda bor. Ular mashinalarning tashqi qismida (kombaynning parragi, qirquvchi apparat iva h.k.) va ichki qismida (yanchish barabani, tozalash ventilyatori, konveyerlar) bo'lishi mumkin. Harakatga keltiruvchi dvigatelning aylanayotgan maxovigi atrofidagi doira xavfli hisoblanadi. Shu sababdan agar dvigatelni yurgizib yuborishning iloji bo'lsa, maxovikni qo'l bilan aylantirish man yetiladi. Yurib ketayotgan mashinaning o'zi ham xavfli doira hisoblanadi. Shuning uchun dvigatel ishlayotganida yoki mashina yurib ketayotganida uni moylash, rostlash va nuqsonlarini bartaraf qilish man yetiladi. Mexanizasiyalashtirilgan agregatlarga xizmat ko'rsatayotganlar ish vaqtida xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilishi: ishlab turgan mashina yaqinida yechinib-kiyinmasligi, o'ziga mos bo'lmagan jomakorda ishlamasligi, kiyimining yetaklari (barlari) shalvirab osilib turmasligi kerak.

Traktor, kombayn va avtomobilda haydovchi asboblarning to'la jamlanmasi, birinchi yordam ko'rsatish uchun aptechka, ichimlik suv solingan idish, zavod tomonidan beriladigan qo'llanma bo'lishi shart.

Zamonaviy qishloq xo'jaligi texnikasida sodir bo'lgan yoki sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xavfsizliklardan ximoyalash uchun signalizasiyadan keng foydalaniladi. Vazifasiga qarab signalizasiyalar ogohlantiruvchi (mehnat xavfsizligiga rioya qilish to'g'risida ogohlantiradi, transport vositalarining harakatini boshqarish), avariya haqida (xavfli ish tartibi sodir bo'lganligi to'g'risida xabar) nazoratlovchi (ishlab chiqarish jarayonidagi harorat, bosim, suyuqlik miqdori va boshqalarni nozorat yetish) va gaplashishga oid (bir mexanizm yoki agregatga xizmat ko'rsatuvchi, bir guruh odamlar bilan operativ, ovozli va ko'rish signallarini shartli bog'lanishlaridir).

Harakati bo'yicha quydagi turdagi signalizasiyalardan foydalaniladi: yorug'lik, ovozli, rangli, va belgi o'rnatish. Yorug'lik signalizasiyalari transport vositalarida xavfsizlik vositasi sifatida keng foydalaniladi. Ular oldindan va orqadan kelayotgan transportdan ogohlantiradi. Shu maqsadda transportvositalari har xil signalizasiya yoritish asboblari: faralar, o'lchamlarini, burilishni ko'rsatuvchi chiroqlar, stop-signallar bilan jihozlanadi.

GOST 12.4.026-76 quyidagi signal ranglarini va vazifalarini belgilaydi: qizil – «man yetish», «stop», «yaqqol xavflilik», sariq - «diqqat», «mumkin bo'lgan xavf to'g'risida ogohlantirish», yashil – «xavfsiz», «ruxsat yetiladi», «yo'l ochiq», ko'k – «informasiya».

Oxirgi vaqtlarda ishchi kiyimi va korjomalarini bo'yash muammosiga juda katta e'tibor berilmoqda. An'anaviy qora va to'q ko'k ranglarni boshqa och ranglar bilan almashtiriladi. Xavfli doirada ishlovchi odamning kiyimi ish joyidan keskin ajralib turishi maqsadga muvofiqdir. Ochiq havoda ishlaganda to'q sariq rangdagi kiyim maqsadga muvofiqdir. Bunday kiyimlarni temir yo'llarni ta'mirlayotgan va yo'l qurilishi ishlarida ishlayotgan ishchilar kiyadi.

Masofadan turib kuzatish va boshqarish shu sharoitlarda olib boriladiki, operatorni ish doirasida xavfsizlik nuqtai nazardan yoki texnologik sabablarga ko'ra mumkinmasligi, shungdek ishlab chiqarishni kompleks mexanizasiyalash va avtomatlashtirish sharoitida samarasizdir. Masofadan kuzatish mahsus datchiklar, signalizatorlar, teleyekranlar va nazorat-o'lchov asboblari orqali olib boriladi. Masofadan turib boshqarish tizimlari, elektron-mashinalarida bajariladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

Paxta ishlab chiqarish O'zbekiston iqtisodiyoti tarmoqlari uchun samarali hisoblanib, qishloq xo'jaligi korxonalarini uchun nisbatan kamroq samara berib kelmokda. Paxta tolasi ishlab chiqarish va uni sotish bo'yicha O'zbekistonning jahon bozoridagi o'rnini keyingi yillarda bir muncha pasayganligini ko'ramiz. Ammo bu O'zbekistonda ishlab chiqarish darajasini keskin kamaygan va tarmoqda umumiy molarko'p degan xulosani bermaydi.

O'zbekistonda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlari iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarini ingari, paxtachilikni ham kamxarajatli, mavjud resurslardan oqilona foydalanishga asoslangan, mehnat resurslarining imkon qadar ko'proq qismini o'ziga jalbetadigan va albatta raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga asoslanishini taqozo qiladi.

Jahon bozorida mamlakatimizning eksporterlar qatorida o'z o'rnini boshqa mamlakatlar gabo'shatishiga hamaynan paxta tolasini mamlakatida qayta ishlash darajasini oshirish hisababdir.

Ishtixon tumani fermer xo'jaligi faoliyati ijobiy natijalarga erishib kelmokda, jumladan, 2009-2011 yillarni tahlil qilib o'rganish natijasida tuman fermer xo'jaliklarida yalpi mahsulot ishlab chiqarish 85 foizga, pul tushumi 83,9 foizga, sof foydaning 79,7%ga oshishi o'zida aks ettirib turibdi. Shuningdek, yalpi foydani o'zganish uning 2010-2013 yillar davomida 1 ga yer hisobiga 210,6 ming so'mga yoki 79,7%, 1 xodim hisobiga - 529,6 ming so'm yoki 78%ga, 1000 so'mlik asosiy vosita hisobiga 207,9 so'mga yoki 27,1%ga oshganligini ko'rsatdi.

Tumanda asosiy qishloq xo'jalik mahsulotlari paxta va g'alla yetishtirish miqdori ham oshib bormoqda, birgina 2013 yilda tumanda paxta xom-ashyosi - 27263 tonnani yoki 2010 yilga nisbatan 278 tonnaga yoki 1%ga oshgan, g'alla - 50645,8 tonna, 2010 yilga nisbatan 1765,8 tonna yoki 3,6% oshgan, sabzavot ishlab chiqarish - 6860 tonnani tashkil etgani holda, 2010 yilga nisbatan - 5250 tonnaga yoki 43,4%ga kamaygan.

Tuman fermer xo'jaliklarida mahsulot sotish rentabelligi darajasi 2010 yilda - 25,6%, 2011 yilda - 33,3%, 2012 yilda - 24,3% va 2013 yilda - 24,9%ni tashkil

etib, o'rganilgan davrda bir tekis o'zgarmaga holda 2013 yilda - 0,7 punkt kamayganligi kuzatildi.

Tumanda 2010 yilda 26985 tonna paxta xom-ashyosi ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2011 yilda mahsulot ishlab chiqarish hajmi keskin oshib – 29753 tonnani tashkil etgan, ammo keying yillarda ishlab chiqarish hajmida pasayish kuzatilib, 2012 yilda – 27277 tonna, 2013 yilda – 27263 tonna paxta xom ashyosi ishlab chiqarilgan.

Tumanda paxta xom-ashyosidan olingan daromad 2010 yilda – 3102 mln so'm bo'lgan bo'lsa, 2011 yilda – 4716 mln so'mni, 2012 yilda 2914 mln so'mni va 2013 yilda 3850 mln so'mni tashkil etgan.

Ishtixon tumani fermer xo'jaliklari har yili sal kam 10 ming yer maydonida paxta xom ashyosi yetishtirishadi. 2010-2013 yillar tahlili go'za ekin maydonlari 9490-10240 ga oralig'ida bo'lganligini va tahlil qilingan davrda 510 gektarga yoki 5%ga qisqarganini ko'rsatdi. Shunday bo'lsa-da, tumanda hosildorlikning 1,6 s/ga oshishi umumiy mahsulot miqdorining 278 tonna yoki 1% ga oshganligini ko'rsatdi. Bu hosildorlikni kelgusida yanada oshirish orqali, paxta ekin maydonlarini oshirmasdan yalpi hosilni yanada ko'paytirish imkonini berishi mumkinligining yana bir dalilidir.

Tuman fermer xo'jaliklarida 2010-2013 yillar davomida iqtisodiy ko'rsatkichlarda ham o'sish kuzatilgan. Jumladan: daromad – 59,2%ga, jami sarflar – 67%ga, yalpi foyda 24,1%ga oshgan. Foydaning nisbatan kam o'sishiga 1 birlik paxta sotish bahosining tannarga nisbatan kamroq o'sganligini sabab qilib ko'rsatish mumkin. 2010-2013 yillarda 1 birlik paxta xom-ashyosi 57,6%ga oshgan bo'lsa, tannarx nisbatan ko'proq 65,3%ga oshgan, natijada foyda ham kamroq 22,8%ga o'sganligi kuzatildi. Bu rentabellikka o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmagan. 2010 yilda rentabellik darajasi 22,2% bo'lgan bo'lsa, 2013 yilda 16,5%ni tashkil etib, tahlil qilingan davrda 5,7 punktga kamaygan.

Ishtixon tumani fermer xo'jaliklarida o'rganilgan davrda yalpi foyda 747,8 mln so'mga oshgan bo'lib, bu o'zgarishga 3 omil ta'sir etgan: mahsulot

miqdorining oshishi – 32 mln so'm oshishiga, paxta tannarxining oshishi 9208,8 mln so'm kamayishiga, paxta sotish bahosining oshishi 9924,6 mln so'm ta'sir o'tkazgan.

Tumanfermer xo'jaliklari paxta rentabelligi o'rganilgan davrda 5,7 punktga kamaygan bo'lib, xarajatlarning oshishi hisobiga – 8,9 punkt kamaygan va yalpi foydaning oshishi hisobiga 3,2 punktga oshgan.

Tumanfermer xo'jaliklarida 2013 yilda paxtachilikka qilingan jami xarajatlar 23309,6 mln so'mni tashkil etib, 2010 yilga nisbatan 9352,6 mln so'mga oshgan. Xarajatlar tarkibida qiymati bo'yicha eng ko'p o'sish mehnat haqi va ajratmalar xarajatlarida bo'lib, o'rganilgan davrda qiymati 3914,7 mln so'mga oshib, salmog'i 0,9 punktga kamaygan. Salmog'i jihatidan tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, tuman fermer xo'jaliklarida: Ish va xizmatlar, mineral o'g'itlar, boshqaruv xarajatlari, sug'urta to'lovlari xarajat moddalarida o'sish kuzatilgan bo'lsa, Mehnat haqi va ajratmalar, Asosiy vositalarni saqlash, Urug'lik, YoMM xarajatmoddalaridakamayishkuzatilgan.

Xarajatmoddalaritarkibidasalmog'ijihatidanengko'po'sishishvaxizmatlarmoddasid akuzatildi: 0,7 punkt. Bundanpaxtachilikdaxo'jaliktexnikalaridanemas, ko'proqishvaxizmatlardanfoydalanib, tannarxningoshishigaolibkelayotganiniko'rishmumkin.

BitiruvmalakaviyishinibajarishdavomidaIshtixon tumanidagifermerxo'jaliklaridahampaxtachilikdaiqtisodiysamaradorliknioshirishva tarmoqnisamaralirivojlantirishimkoniyatlarimavjudliginianiqladik.

Tumandapaxtachilikdaiqtisodiysamaradorliknioshirishvaunisamaralirivojlantirishu chunquyidagilarniamalgaoshirishlozimdebhisoblaymiz:

1. Paxtachilikxo'jaliklaridao'rganilgandavrdamahsulotmiqdorinivayerdanfoydalanishsamaradorliginiifodalovchiasosiyko'rsatkichhosildorlikdarajasi 26-28s/ganitashkilqilganxolos. O'zbekistonvaaynanIshtixon tumanisharoitidahosildorlikdarajasiningbundaydarajadapastbo'lishiishalbchiqarish gasarflanadiganresurslarningqoplanishivaishlabchiqaruvchilarningshaxsiymanfaatlariniqondirishuchunyetarliemas. Bundantashqaribuhosilning 15-20 %i 3-

chivaundanpastnavlargasotilganligihamsamaradorlikdarajasiningyuqoribo'lishigas albiyta'sirko'rsatadi.

Shujihatdanolingandahosildorlikdarajasinioshirishomillaridanfoydalanishlozim.

Buninguchunmineralvaorganiqo'g'itlardansamaralifoydalanish, agrotexnikatadbirlarinito'g'riqo'llashvayangiyuqorihosilberadigannavlarnitanlash maqsadgamuvofiqdir.

2. Paxtachilikdaiqtisodiysamaradorliknioshirishdamahsulotbahosinioshirishga erishishimkoniyatlaridanfoydalanishlozim.

Buninguchunpaxtaxomashyosiniyuqorisifatliishlabchiqarishvayuqorisifatlitolabera digannavlarnito'g'ritanlashlozim.Paxtachilikdaiqtisodiysamaradorlikningpastdaraja sigayanabirsababtarmoqdamoddiyxarajatlarulushiningtannarxtarkibidakattaulushni egallayotganligidir.

Moliyaviy-iqtisodiyinqirozgaqarshikurashchoralarishartlaridanbirihamxarajatlarniimkonqadar qisqartirishvashuasosdamahsulotvatarmoqraqobatbardoshliginioshirishhisoblanadi. Moddiyxarajatlarnikamaytirishuchunyoqilg'i-moylashmateriallari, urug'lik, ishvaxizmatlarkabixarajatelementlaridanoqilonafoydalanishmaqsadgamuvofiqdir.

3. Paxtachilikdaiqtisodiysamaradorliknioshirishuchunmehnatxarajatlaridanoqilonafoydalanishhammuhihamiyatkasbetadi.

Mehnatxarajatlaridanoqilonafoydalanishgabilvositata'sirko'rsatishomillaridanbirisi fatidamehnatkashlarniqilinganishvayaratilganmahsulotmiqdorigamutanosisibrag'batl antirishlozim.

Buesaishlovchilarningpaxtaxomashyosinisamaraliishlabchiqarishgabo'lganijobiym unosabatlarinikuchaytiradi.

4. Paxtachilikdaiqtisodiysamaradorliknioshirishdabilvositata'sirko'rsatadigan omillardanbirijahonpaxtabozorikonyunkturasi'rganishvaungamosmahsulotishla bchiqarishgaerishishlozim. Jahonpaxtabozoridapaxtaxomashyosiningbahosikelgusi

10 yillikdaoshishikutilayapti.

Shujihatdanxomashyoniichkibozortalablaribilanxalqarobozordaegallangano'rinnih amyoy'qotmaslikmaqsadgamuvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. – T.: O'zbekiston, 2008.
2. O'zbekiston Respublikasi QSXV buyrug'i. Paxta yetishtiruvchi qishloq xo'jalik korxonalariga topshirgan paxta hosilidan ularga tegishli bo'lgan paxta sheluxa va kunjarasini kaytarish tartibi to'grisida Nizom. № 169. 04.08.2006
3. Karimov I.A. Jahonmoliyaviy-iqtisodiyinqirozi, O'zbekistonsharoitidaunibartarafetishningyo'llarivachoralari. –T.: O'zbekiston, 2009.
4. KarimovI.A. Asosiyvazifamiz – Vatanimiztaraqqiyotivaxalqimizfarovonliginiyanadayuksaltirishdir. – PrezidentIslomKarimovning 2009 yilning asosiyyakunlariva 2010 yilda O'zbekistonniijtimoiy-iqtisodiyrivojlantirishningengmuhimustuvoryo'nalishlariga bag'ishlanganVazirlarMahkamasiningmajlisidagima'ruzasi //Xalqso'zi, 2010.
5. KarimovI. Mamlakatimiznimodernizasiyaqilishva kuchlifuqarolikjamiyatibarpo etish – ustuvor maqsadimizdir. – PrezidentIslomKarimovningO'zbekistonRespublikasi OliyMajlisiQonunchilikpalatasiva Senatiningqo'shma majlisidagima'ruzasi//Xalqso'zi, 28.10.2010.
6. KarimovI.A. O'zbekistonmustaqillikkaerishishostonasida. -T.: O'zbekiston, 2011. – 440 b.
7. KarimovI.A. 2012-yilVatanimiztaraqqiyotiniyangibosqichgako'taradiganyilbo'ladi: PrezidentIslomKarimovning 2011-yilningasosiyyakunlariva 2012-yildaO'zbekistonniijtimoiy-iqtisodiyrivojlantirishningustuvoryo'nalishlarigabag'ishlanganVazirlarMahkamasi ningmajlisidagima'ruzasi//Xalqso'zi. 20.01.2012.

8. Karimov I.A. 2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi: Prezident Islom Karimovning 2013-yilning asosiy yakunlari va 2014-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi//Xalq so'zi. 18.01.2014.

9. AzizqulovB. Ilg'ortexnologiyalariqtisodiyamaradorligi// O'zbekistonqishloqxo'jaligi. –Toshkent, 2008. -№9. -35-b.

10. AliqulovA. Paxtatannarxi//O'zbekistonqishloqxo'jaligi. –Toshkent, 2009. - №12. -25-b.

11. AshurovO. Turliusullardapaxtayetishtirishdasuvsarfi// O'zbekistonqishloqxo'jaligi. –Toshkent, 2008. -№9. -24-b.

12. DoliyevT. Sarhisobpallasi//O'zbekistonqishloqxo'jaligi. –Toshkent, 2008. - №10. -3-b.

13. Jo'rayevF. Qishloqxo'jalikkorxonalaridaishlabchikarishnitashkiletish. –T.: Istiqlol, 2004.

14. IsmoilovA., MurtazayevO. Qishloqxo'jaligiiqtisodiyoti. –T.: Moliya, 2005.

15. MurtazayevO. Paxtachilikagrosanoatmajmuasisamaradorliginioshirishmuammolari. –T.: FAN, 2005.

16. MurtazayevO., G'aniyevI., HasanovSh., AxrorovF. Agrarsiyosatvaqishloqxo'jalikbozorlari. –Samarqand, 2009.

17. NazarovR., MurtalibovM. O'zbekistonvajahonpaxtachiligi//O'zbekistonqishloqxo'jaligi. –Toshkent, 2012. - №1. -6-b.

18. OlimjonovO., FarmonovT., QosimbekovP., SirojiddinovS., QosimovM., RafiqovI. Fermerlikfaoliyatininghuquqiyvamoliyaviyasoslari. –T.: Universitet, 2005.

19. OripovR.O., XalilovN.X. O'simlikshunoslik. -Samarqand, 2005.

20. Ochilov R., Sa'dullayev A., Hamroyev M.
G'o'zarakunandalariga qarshikurash. // O'zbekiston qishloq xo'jaligi. – Toshkent, 2008. - №7. -12-b.

21. Paxta: Jahonbozorlariva Savdohisoboti (ingliztilida).
www.fas.usda.govsayti. 2014.

22. Umarov M. Makkajo'xorini kulisli ekishning g'o'za hosildorligiga ta'siri // O'zbekiston qishloq xo'jaligi. – Toshkent, 2008. - №9. -28-b.

23. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining o'rinbosarlari, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha yordamchilari, tuman va shahar hokimlarining mintaqaviy seminarlari materiallari. 18-23.01.2012.

24. Qudratov T. O'simlikchilik va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish samaradorligining statistik tahlili. - Samarqand, 2010.

25. Husainov J. Paxtachilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarining optimal o'lchamlari // Agro ilm. – Toshkent, 2009. - №3. -52-53-b.

26. Ishtixon tumani qishloq va suv xo'jaligi bo'limi hisobot ma'lumotlari. 2010-2013 yillar.

27. Ishtixon tumani Statistika bo'limi hisobot ma'lumotlari. 2010-2013 yillar.

28. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari

29. Internet saytlari:

29.1 www.agro.uz – Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi sayti

29.2 www.edu.uz - Oliy ta'lim sayti

29.3 www.lex.uz – qonun hujjatlari sayti

29.4 www.livestock.uz – O'zbekiston chorvachiligi sayti

29.5 www.samqxi.uz – Samarqand qishloq xo'jalik instituti sayti

29.6 www.usda.gov – AQSh qishloq xo'jalik departamenti sayti

29.7 www.uz.bir.uz, – Biznes informasion resurslar saytlari

29.8 www.uza.uz – O'zbekiston Axborot agentligi sayti

29.9 www.uzreport.com – biznes hisobot portali

29.10 www.ziyonet.uz – Ziyonet ta'lim portal

29.11 <http://faostat.fao.org> - Jahon oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti sayti